

CURRENT REFORMS IN THE HEALTH CARE SYSTEM IN NEW UZBEKISTAN

Mahmudova Aziza Nugmanovna.

University of Samarkand State Medical University Department of community
and humanities, PhD

Otayev Sardorbek Toshpulatovich

A student of the 301st group of the Faculty of Health Management of
Samarkand State Medical University.

Annotation: This article covers the organization and improvement of Public Health Protection medical care in our country, further improvement of the medical system, radical improvement of the quality and effectiveness of medical care for the population and reforms carried out in the new Uzbekistan.

Key words: new Uzbekistan, population, reform, medical service, prosperous life.

Yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta'minlash, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilganiga va oshirilayotganiga guvoh bo'layapmiz. Tibbiy xizmatga baho berish mezonlari o'zgardi. Ushbu jarayon sog'liqni saqlash sohasida ham jadallik bilan kechayotir.

Tibbiyoti rivojlangan davlatlardagi kabi eng ilg'or innovatsion taraqqiyotga erishish borasida jiddiy qadamlar tashlanmoqda. Ayniqsa, so'nggi uch yilda tibbiy xizmatni yanada yuksaltirishga daxldor xayrli tashabbuslar sog'liqni saqlash istiqbolini belgilab berdi. Davlatimiz rahbari tizimda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgan dolzarb masalalar, tibbiyot muassasalari faoliyatiga oid to'planib qolgan muammolarni bartaraf etish vazifasini qat'iy qo'yidilar. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunga kelib tibbiy xizmat samaradorligi va sifatiga baho berishda mezonlar butunlay o'zgardi. Endilikda sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarning natijasi tahlil qilinganda, statistik ma'lumotlar emas, xalqimiz faoliyatimizga qanday baho berayotgani, aholi davlat tomonidan yaratilgan zamonaviy tibbiy xizmatlardan nechog'lik bahramand bo'layotganiga asosiy urg'u berilmoqda. Tabiiyki, bu tibbiyotning birlamchi bo'g'inidan tortib yuqori tuzilmalargacha ish faoliyatini tashkil etishda

asosiy e'tiborni inson omiliga yo'naltirish, tibbiy xizmatning sifati va samaradorligini oshirishga zamin yaratmoqda.

Aholi talab va ehtiyojiga mos birlamchi bo'g'in. Islohotlar jarayonida tibbiyotning birlamchi bo'g'iniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sababi, bugungi kunda qishloq vrachlik punkti, qishloq oilaviy poliklinikasi hamda shahar oilaviy poliklinikasi deb ataluvchi tibbiyot muassasalari aholiga yaqin joylashgani uchun kimdir shifo istab, kimdir tibbiy maslahat olish ilinjida ushbu muassasalarga tez-tez murojaat qiladi. Bunda odamlarning talab va ehtiyojiga mos tibbiy xizmat ko'rsatilsa, tabiiyki, xalqimizda tibbiy xizmatga nisbatan ishonch va qoniqish hissi yuqori bo'ladi. Ana shu jihatlar e'tiborga olinib, ilgari samarasiz ishlagan bir qator qishloq vrachlik punktlari o'rnida 800 ga yaqin qishloq oilaviy poliklinikalari tashkil etildi. Qishloq vrachlik punktlaridan farqli ravishda qishloq oilaviy poliklinikalarida umumiy amaliyot shifokori bilan bir qatorda, beshta tor mutassis – ginekolog, pediatr, xirurg, stomatolog, ultratovush tahlil apparatida ishlaydigan shifokor faoliyati ta'minlandi. Shahar oilaviy poliklinikalarida esa o'nta yo'nalishda tor mutassislar aholiga xizmat ko'rsatayapti. Yana bir muhim soha – oilalarga borib aholi orasida tibbiy madaniyat tarqatuvchi patronaj hamshiralar faoliyati takomillashayapti. Shu o'rinda sohaning huquqiy asoslari mustahkamlanayotganini e'tirof etish joiz. Xususan, keyingi ikki-uch yil ichida bu yo'nalishda 140 dan ziyod me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ularda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilishi natijasida aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya, shoshilinch va tez tibbiy yordam, ixtisoslashtirilgan xizmatlar takomillashmoqda. Bunday keng qamrovli chora-tadbirlar tufayli aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi uzaymoqda. Onalar, bolalar o'limining oldini olish, kasalliklarni barvaqt aniqlash, oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sezilarli natijalarga erishilmoqda.

E'tiborli jihat, davlat byudjetidan sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishga ajratilayotgan mablag'lar ham yildan-yilga ko'paymoqda. Joriy yildan boshlab, davlat tibbiyot tashkilotlarini dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash yaxshilanayapti. Shu yilda 231 ta tibbiyot obyektida qurilish-

ta'mirlash ishlari jadal olib borilmoqda. Buning uchun davlat byudjetidan 972 milliard so'm mablag' yo'naltirilishi rejalashtirilgan. "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari hamda "Salomatlik – 3" loyihasi doirasida ham qator investitsiya dasturlari amalga oshirildi. Yangi konsepsiya – yangi davrda.

Qayd etish kerakki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni mamlakatimiz tibbiyoti taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Farmon bilan tasdiqlangan 2019 – 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasida muhim vazifalar belgilandi. Jumladan, sohada milliy qonunchilikni takomillashtirish, tibbiyot sohasida zamonaviy boshqaruv tizimi va hududlarda "klaster" modelini shakllantirish, moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish, tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, onalik va bolalik muhofazasini kuchaytirish, xususiy tibbiyot, davlat-xususiy sheriklik mexanizmi va tibbiy turizmni rivojlantirish orqali investitsiyalarni keng jalb etish, farmatsevika tarmog'i, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish, tibbiyot fanini rivojlantirish hamda elektron sog'liqni saqlash tizimini keng joriy etish kabi ustuvor vazifalar aks etgan konsepsiya ijrosini ta'minlash barchamizning zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Aslida ham jahon standartlari asosida menejment va tibbiy xizmatlar sifatini boshqarishning eng namunali amaliyotlarini joriy etish uchun sohada boshqaruvni xalqaro andozalar talablari darajasiga olib chiqish bugungi kunning muhim talabidir. Jumladan, tibbiyot muassasalarida "har bir davolangan holat uchun" to'lash tizimini hamda kishi boshiga moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish choralari ko'rilayapti. Konsepsiyaga muvofiq, 2019-yil 1-apreldan ayrim tumanlardagi tibbiyot muassasalarida jahon tibbiyotidagi eng ilg'or amaliyotlardan bo'lgan kishi boshiga moliyalashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari boshlandi. Ushbu eksperiment chuqur tahlil etilib, ijobiy natijalar 2020-yil 1-apreldan boshlab boshqa hududlarga ham tatbiq etiladi. Bundan tashqari,

yurtimizda majburiy tibbiy sug'urta tizimi 2021-yildan bosqichma-bosqich joriy etilishi ko'zda tutilgan bo'lib, bu borada ham izchil faoliyat olib borilmoqda. Olti oyda 434 ta xususiy klinika. Xususiy tibbiyotni rivojlantirish ham bugungi tibbiy-ijtimoiy islohotlarning muhim yo'nalishidir. Xususiy tibbiyot muassasalarini rivojlantirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilib, bugungi kunda mamlakatimizda 5 mingdan ziyod xususiy klinikalar faoliyat yuritayapti.

Joriy yilning o'tgan olti oyida mamlakatimiz bo'yicha 434 ta yangi xususiy tibbiyot muassasalari tashkil etildi. Shundan 18 ta loyiha chet el investitsiyasi ishtirokida amalga oshirildi. Ayni paytda tibbiyot tizimini yanada takomillashtirish, sog'liqni saqlash sohasiga investitsiyalar oqimini ko'paytirish, investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik tizimi joriy etilmoqda. E'tiborli jihat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 16-apreldagi "Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tibbiyot sohasida yangi davrni boshlab berdi. Ushbu hujjat davlat hamda xususiy sektorlarning birgalikda ishlashi, investorlarning yurtimiz hududida, davlat sektorida faol ish yuritishi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Endilikda investorlar o'zlariga qulay bo'lgan muhitda, o'zlari istagan davlat tibbiyot muassasalariga investitsiya kiritish imkoniyatiga ega. 10 million 700 mingga yaqin murojaat. Aholi salomatligini asrashda muhim tuzilma – shoshilinch tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish, faoliyat samaradorligi va tezkorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar takomillashib borayotir. Bunda Prezidentimizning 2018-yil 16-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyat kasb etdi.

So'nggi ikki yil ichida tez tibbiy yordam xizmatining maxsus sanitar avtotransport parki qariyb 1500 ta yangi avtomashinalarni harid qilish evaziga batamom yangilanib, ularning umumiy soni 2400 ga yetkazildi. Natijada, tizimning maxsus avtotransportga bo'lgan talabi mamlakatimiz tarixida birinchi marta to'liq qoplandi. Tez tibbiy yordam mashinalarining 10 foizini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan, xorijda ishlab chiqarilgan reanimobillar tashkil

etmoqda. Natijada tez tibbiy yordam xizmati xalqaro mezonlar darajasiga ko'tarildi. Birgina joriy yilning 9 oyida shoshilinch tibbiy yordam xizmatiga jami 10 million 700 mingga yaqin bemor murojaat qilgan, shulardan qariyb 7 million 800 ming nafari 103 tez tibbiy xizmati bo'yicha, 2 900 mingga yaqin bemor esa statsionar muassasalarga murojaat etishgan. Ulardan 2 200 mingga yaqiniga ambulator va 700 mingdan ziyodiga esa statsionar yordam ko'rsatilgan. Bundan tashqari, aholi chaqiruvlarini avtomatik belgilash kabi muhim vazifalarni bajarish maqsadida tez tibbiy yordam boshqarmasining avtomatlashtirilgan tizimini yaratish, Call-markazlarni xalqaro talablarga ko'ra to'liq jihozlash, tibbiyot xodimlari yetib kelgunga qadar va shifoxonagacha bo'lgan bosqichda tibbiy yordamni takomillashtirish bilan bog'liq muhim chora-tadbirlar amalga oshirilayapti. Murakkab operatsiyalar o'zimizda amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda tibbiyotning jadallik bilan rivojlanayotganini shu vaqtgacha jazm etilmagan o'ta murakkab va noyob operatsiyalar o'zimizda muvaffaqiyatli amalga oshirila boshlanida ham ko'irsh mumkin. Bu borada so'nggi yillarda muhim loyihalar amalga oshirilayapti. Xorijdagi tibbiy klinikalar bilan hamkorlikda qator xususiy tibbiyot muassasalari tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, davlat tibbiyot muassasalari faoliyati ham zamon talabidan kelib chiqib takomillashayapti. Hozirda mamlakatimizda xirurgiya, kardiologiya, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, endokrinologiya, onkologiya, nevrologiya, allergologiya kabi ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari soni 16 taga yetdi. Shuningdek, tumanlarda 306 ta ixtisoslashgan bo'limlar, viloyat markazlarida respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining 10 ta filiali tashkil qilindi. Quvonarlisi, joriy yilning o'tgan olti oyi davomida Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari tomonidan hududlarda 53,8 mingdan ortiq aholi tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, 1358 ta operativ muolajalar bajarildi, shulardan 775 tasi yuqori texnologiyali operatsiyalardir. Natijada yuqori texnologiyali operatsiyalar ulushi 57 foizga yetdi. Yangi diagnostik usullar soni 144 tani va yangi davolash usullari 208 tani tashkil qildi. Shu o'rinda ayrim misollarga to'xtalib o'tsak. Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazida buyrak ko‘chirib o‘tkazish bo‘yicha operatsiyalar muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda. Shuningdek, Respublika Gematologiya va qon quyish ilmiy tekshirish instituti olimlari jahon tibbiyotining ilg‘or yo‘nalishi — o‘zak hujayra transplantatsiyasini o‘zlashtirib, hozirda uni muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘ydi. O‘tgan yil Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida mamlakatimiz tibbiyoti tarixida birinchi marta jigarni ko‘chirib o‘tkazish operatsiyasi yuqori natija bilan o‘tkazildi. Darhaqiqat, zamonaviy tibbiyotni yuqori texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, transplantologiya rivojiga alohida e‘tibor qaratilmoqda va bu kelgusida ham davom etadi.

Kelgusida mamlakatdamizda molekulyar va nuklear tibbiyot, robot yordamidagi operatsiyalar uchun uskunalar va davolashning boshqa yuqori texnologiyali jarrohlik usullarini joriy qilish ham ko‘zlanmoqda. Sog‘liqni saqlash rivoji yo‘lidagi ulkan maqsadlarni o‘z vaqtida ro‘yobga chiqarish tibbiyot sohasida mehnat qilayotgan 70 ming nafardan ziyod shifokorlar va ko‘p ming sonli o‘rta tibbiyot xodimlarining sharaflari burchidir. Shu bois, xodimlarning samarali faoliyat yuritishi uchun munosib sharoit yaratish va mehnatga yarasha haq to‘lash choralari ko‘rilayapti. Bizga esa ushbu e‘tiborga monand halol mehnat qilish, davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan zamonaviy tibbiy xizmatdan aholining barcha qatlamini bahramand etish va xalqimizni rozi qilish vazifasi yuklanmoqda. Ishonamizki, bunday mas‘uliyatli vazifani uddalash uchun tibbiyotimizning ilmiy va amaliy salohiyati yetarli. Barchamiz bahamjihat bo‘lib, imkoniyatlarni to‘liq ishga solib mehnat qilsak, “salomatlik posboni”, degan ulug‘ nomga munosib bo‘lishga, xalqimizning ishonchi va mehrini qozonishga albatta erishamiz.

Material va metodlar: Sog‘liqni saqlash vazirligining vaziri bilan ochiq muloqotda va so‘rovnoma yuzasidan hamda tuli-xil adabiyotlardan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining sog‘liqni saqlash to‘g‘risidagi qonunlari va asarlaridan foydalanildi.

Tadqiqod natijalari: Tekshirish natijasida 2000-2023 yillar oralig‘ida sog‘liqni saqlash tizimida erishilgan va amalga oshirilgan islohatlar natijasida

ma'lumotlar to'plamidan olindi. Mustaqillika erishgandan buyon aholi salomatligi va farovonligini oshirish maqsadida chora-tadbirlar o'tqazilib kelinmoqda. 2019-2025-yilga qadar uzoq mudatli strategik bosqichni yo'lga qo'ldi. Barchamiz bahamjihat bo'lib, imkoniyatlarni to'liq ishga solib mehnat qilsak, "salomatlik posboni", degan ulug' nomga munosib bo'lishga, xalqimizning ishonchi va mehrini qozonishga albatta erishamiz.

Xulosa: Xulosa qilib aytish mumkinki, davlatimiz chekka viloyatlariga aholi salomatligi saqlash va reproduktiv salomatlikni saqlash, shuningdek neyroxirurgiya bo'limini va mutaxasislarni ko'proq joriy etilishi, mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirilishiga, sifatli tibbiy xizmatni rivojlantirilishiga xizmat qiladi. Mazkur sohada olib borilayotgan islohotlar aholi uchun farovon hayot barpo etishga asos bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Махмудова, А.Н., Ибрагимова, Э.Ф., Шукурова, Д.Б., Абдурахмонова, З.Э. and Наимова, З.С., 2020. Медицина Узбекистана-достижения и перспективы развития сферы. *Достижения науки и образования*, (3 (57)), pp.49-52.
2. Махмудова, А.Н. and Махмудова, С., 2022. Гуманитаризация медицинского образования как фактор повышения качества обучения в вузе. *Science and Education*, 3(6), pp.709-718.
3. Махмудова, А.Н., 2022. Правовая защита пациентов в сфере здравоохранения в новом Узбекистане. *Academic research in educational sciences*, (Conference), pp.102-107.
4. Махмудова, А.Н., Афанасьева, О.Г. and Камариддинзода, А.К., 2022. ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МИРОВОЗРЕНИЯ И ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА. *ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ*, (SI-2).
5. Nugmanovna, M.A. and Kamariddinovna, K.A., 2021, January. Modern biotechnical problems of medicine and their solutions. In *Archive of Conferences* (Vol. 13, No. 1, pp. 169-173).
6. Nugmanovna, M.A., 2022. BIOETHICS AS A FORM OF PROTECTION OF INDIVIDUALITY AND PERSONALIZED MEDICINE. *Thematics Journal of Social Sciences*, 8(4).
7. Nugmanovna, M.A., 2022. БИОЭТИКА ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙАТДА ИНДИВУАЛЛИКНИ НИМОҲА ҚИЛИШ ШАКЛИ СИФАТИДА. *ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ*, (SI-2).

8. www.gov.uz -Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали.
9. www.lex.uz -Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
10. www.bilim.uz